

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

**O'QITUVCHI FAOLIYATIDA KOGNITIV KOMPETENSIYANING O'RNI**

**Adizov Baxtiyor Raxmonovich,**

*BuxDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi direktori, pedagogika fanlari doktori, professor.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar jarayonida o'qituvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan bo'lib, ta'limning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, innovatsion yondashuvlar asosida o'quv jarayoni takomillashib borayotgani muallif tomonidan asoslab berilgan. Kognitiv kompetensiya tushunchasining mazmuni, tarkibi, rivojlanish bosqichlari hamda uni pedagogik faoliyatga integratsiya qilish mexanizmlari batafsil tahlil qilinib, kognitiv kompetensiyani shakllantirishda motivatsion, kognitiv faoliyat va shaxsiy komponentlarning roli ochib berilgan. Muallif ushbu kompetensiyani rivojlantirish orqali ta'lim sifati va pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ilgari suradi.

**Kalit so'zlar:** kognitiv kompetensiya, pedagogik faoliyat, kasbiy rivojlanish, interfaol ta'lim, innovatsion metodika, motivatsion komponent, kognitiv rivojlanish, o'qituvchi malakasi, androgogika, ta'lim sifati

Yangi O'zbekistonning dunyo hamjamiyati bilan integratsiyaga kirishishi sharoitida ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv-metodik ta'minotini yaxshilash, mutaxassis kadrlar tayyorlash sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida o'qituvchilarning ilg'or ta'lim texnologiyalari va innovatsion usullarini tatbiq etish bo'yicha tashabbuskorligini oshirish, o'qitishning interfaol metodlarini joriy etish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish maqsadida ularning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda, egallanayotgan bilimlarni amalda qo'llashni o'rgatishning innovatsion yondashuvga asoslangan metodikasini takomillashtirishni taqozo etadi.

Kattalar ta'limida kognitiv kompetensiyani rivojlantirish murakkab androgogik muammo bo'lib dastlab kompetensiya, kognitiv tushunchalariga munosabat bildiraylik.

Kompetensiya (lotincha kompetensiya) inson yaxshi xabardor, bilim va tajribaga ega masalalar doirasini ifoda etadi. "Kompetensiya" atamasi 1965-yilda ilk bor N.Xomskiy tomonidan qo'llanilgan. U o'zining "Sintaksis nazariyasi aspektlari" deb nomlangan asarida faoliyatning ideal sharoitlarida o'z ifodasini topadigan ayrim ideallashtirilgan obyektlarni tavsiflashga (N.Xomskiy bo'yicha: tilni o'rganishda muloqotning ideal sharoitlarida) xizmat qiladigan "kompetensiya" tushunchasini qo'llashni taklif etgan.<sup>1</sup>

A.Xutorskiy o'z ishlarida "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalarini alohida ta'riflaydi.<sup>2</sup> Kompetensiya – shaxsiy xususiyatlar (bilim, ko'nikma, malaka, idrok,

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

faoliyat)ning o'zaro yig'indisi bo'lib, samarali faoliyat sifatini belgilaydigan zaruriyatdir. Kompetentlilik – kompetensiyaga ega insonni boshqarish tushuniladi, professionallik faoliyati predmetiga tegishli xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Kompetensiya (lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman ma'nolarini bildiradi) – subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali birga tashkil qila olishlikka tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishdagi shaxsiy qobiliyatidir.<sup>3</sup>

Kompetensiya - u yoki bu kasb egasiga zarur bo'lgan sotsiologik qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisini anglatadi, kompetentlilik esa, shaxs amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kompetensiya me'yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir.<sup>4</sup>

Kompetensiya ko'p ma'noli so'z hisoblanib, ishning funksional talablari va tashkilot qarashlariga mos keladigan, faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan motiv, xarakter xususiyatlari, shaxsning ijtimoiy roli, bilim va ko'nikma ma'nosini anglatadi. "Kompetensiya" va "kompetentlik" aksar hollarda bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalar sifatida ishlatiladi.

"Kognitiv" tushunchasini talqin qilishda bir qancha yondashuvlar mavjud. Ko'pincha bu tushuncha shaxsning kognitiv rivojlanishining tashqi sharoitlarini tavsiflash uchun ishlatiladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida kognitiv so'zi inglizcha (lotin) "cognize" so'zidan olingan bo'lib, u bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq yoki "cognition" - bilish, tushinish kabi ma'nolarni beradi. O'z o'rnida bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan bog'liq hodisadir.

"Kognitiv kompetensiya" tushunchasi tasniflarda mavjud bo'lsada, uning mazmuni va tuzilishi juda kam o'rganilgan. Ko'pgina olimlar faqat kognitiv kompetensiyaning kognitiv komponentini tadqiq etganlar.

Kognitiv kompetensiyalar "tafakkur jarayoni bilan bevosita bog'liq holda olam va uning mohiyatini bilib olish, tushunib etish, anglash, uning muammolarini yechishda ishtirok etishni nazarda tutadilar".

N.A.Muslimov fikricha, "o'qituvchilarning kognitiv kompetensiyasi voqelik obyektlari bilan bog'liq bo'lgan mustaqil reproduktiv va ishlab chiqarish kognitiv faoliyati sohasidagi kompetensiyalar to'plamiga ega bo'lishi"<sup>5</sup>.

Kognitiv kompetensiyaning mazmuni S.G.Vorovshkova,<sup>6</sup> V.S. Xoreshman<sup>7</sup> va boshqalar asarlarida berilgan.

U o'quv va kognitiv faoliyatning asosiy usullarini bilish va qo'llashni o'z ichiga oladi; mantiqiy fikrlash qobiliyatlari;

olingan ma'lumotlarni topish, qayta ishlash, xulosalar chiqarish va o'quv faoliyatida qo'llash qobiliyati;

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

ta'lim maqsadlariga erishish yo'llarini aniqlash, o'quv va kognitiv muammolar va vazifalarni hal qilish qobiliyati;

o'quv va kognitiv muammolarni hal qilish uchun ajratilgan vaqtni rejalashtirish;  
mustaqil ishlash qobiliyati;

ijodiy kognitiv va tadqiqot faoliyati ko'nikmalari;

ta'lim muammolarini hal qilishning evristik usullariga ega bo'lish, atrofdagi voqelikdan bilim olish qobiliyati;

faoliyat natijalarini, muayyan vaziyatda faoliyat usullarining samaradorligini baholash qobiliyati;

o'quv va kognitiv faoliyat subyektini yetarli darajada o'z-o'zini baholash;

bilimga munosabat qadriyat sifatida ijobiy ta'lim motivatsiyasi;

ta'lim va kognitiv maqsad va vazifalarni qo'yish qobiliyati;

o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi tabiyalashga tayyorlik;

ta'lim va kognitiv faoliyat natijalari uchun javobgarlik.

Insonning kognitiv kompetensiyasi bu - uning kasbiy, shaxsiy va ijtimoiy faoliyatga tayyorligi, bilim doirasining rivojlanganligi, o'zini o'zi rivojlantira olishi, ta'lim olish darajasini doimiy ravishda takomillashtirishi, shaxsiy salohiyatini faoliyatida aks ettirishi va mustaqil ravishda yangi bilim va ko'nikmalarni egallashidir.

Nazariy darajada bu ilmiy fikrlash uslubini egallash, amaliy darajada – o'quv jarayonini loyihalash va qurish, pedagogika, psixologiya, o'qitish va tarbiya usullari sohasidagi vazifalarni shakllantirish va ijodiy hal qilish qobiliyatidir.

Kognitiv kompetensiya quyidagi uch bosqichli ketma-ketlikda amalga oshadi:

**Kognitiv kompetensiyaning uch bosqichli algoritmi**

**Birinchi bosqich (asosiy daraja)** – axborotni to'plash bosqichi bo'lib, unda u esda qoladi, saqlanadi va qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga o'tkaziladi. Manba ma'lumotlarini birlamchi aqliy qayta ishlash

**Ikkinchi bosqich (o'rta daraja)** – mantiqiy operatsiyalar va konseptual tizimlar (belgilar, jadvallar va boshqalar) yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash.

**Ma'lumotni o'zgartirish va baholashning uchinchi bosqichi (yuqori daraja)** ijodiy fikrlash darajasida sodir bo'ladi, bu gipotezalarni, mumkin bo'lgan taxminlarni qidirish va tanlashni, turli xil faoliyat vositalaridan foydalangan holda amaliyotda amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Fikrimizcha, kognitiv kompetensiya o'qituvchining nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, munosabatlari, tajribasi va shaxsiy fazilatlari majmui sifatida quyidagilarga imkon beradi:

qidiruv, evristik faoliyatni amalga oshirish, mustaqil ravishda yangi bilimlarni olish;  
ishtirokchilar faoliyatini tahlil qilish;

ta'lim jarayonida, qarorlar qabul qilish.

Ta'kidlash kerakki, har bir o'qituvchi kognitiv kompetensiyani rivojlantirish

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

zarurligini anglashi olingan bilimlarning sifatini oshirishga va kelajakdagi mutaxassisning o'zini o'zi takomillashtirish, o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi rivojlantirishda harakatlanishiga yordam beradi.

Kognitiv rivojlanish jarayonini tushunish uning rivojlanishining quyidagi darajalarini aniqlash imkonini beradi:

1. *Reproduktiv daraja.* Rivojlantirish g'oyalari alohida o'qituvchilar o'zlarining pedagogik faoliyatiga kiritadigan turli xil ta'lim innovatsiyalarini joriy etish orqali ta'lim jarayoniga birlashtiriladi.

2. *Qidiruv darajasi.* Ta'lim jarayonida innovatsion o'zgarishlar uchun asos bo'ladigan kasbiy rivojlanishning konseptual modeli bilan asoslanadi.

3. *Tadqiqot darajasi.* O'qituvchining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish modelini tizimli, har tomonlama amalga oshirish ularning faoliyatida innovatsion o'zgarishlarni ta'minlaydi, ular bosqichma–bosqich o'quv, o'quv va texnologik loyihalar mazmunini ilmiy va amaliy yo'naltirilgan izlanish subyektiga aylanadi.

4. *O'z-o'zini rivojlantirish darajasi.* Ta'limning rivojlanish salohiyati kognitiv faoliyatining mustaqil sohasiga aylanadi.

Psixologik va pedagogik manbalar va maxsus olib borilgan tadqiqotlar o'qituvchilarning kognitiv kompetensiyasining ustuvor tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatishga imkon berdi:

kognitiv– intellektual o'qitish texnikasi, faoliyatning maqsadlari, afzal ko'rilgan o'qitish strategiyalari;

axborotni qidirish va qayta ishlash tamoyillari.

Savodxonlik darajasini aks ettiruvchi asosiy bilimlar:

analitik fikrlash – bu muammolarni tahlil qilish, vaziyatni har tomonlama ko'rish qobiliyati (fikrlashning kengligi va murakkabligi darajasi);

konsyeptual fikrlash naqshlarni tanib olish, yangi tushunchalarni shakllantirish, yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati sifatida;

operasional – umumiy ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatning muayyan turlari;

kognitiv faoliyat kasbiy faoliyatga bo'lgan munosabatni aks ettiruvchi (o'qituvchining ta'lim darajasini yaxshilash istagi) motivatsion shakllanish ko'rsatkichlari, predmetga qiziqish (motivdan maqsadga, tashqi moti vlardan ichki tomonga);

baholovchi mulohaza yuritish qobiliyati, zaiflik va kuchli tomonlarni anglash, kamchiliklar ustida ishlash, muvaffaqiyatsizlik sabablarini tahlil qilish, xatolarini tuzatishga intilish, tanqidiy baho, qiziquvchanlik.

O'qituvchining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini modellashtirishda quyidagilar aks etishi lozim:

jamiyat tomonidan pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan talablar;

psixologik-pedagogik asosning mavjudligi (ilmiy yondashuvlar yoki alohida qoidalar

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

to'plami);

kognitiv rivojlanish jarayonini optimallashtirish muammosi bo'yicha asosiy g'oyalar; yaxlit pedagogik jarayonni tashkil etish, kasbiy rivojlanish va ta'lim jarayonini sifat darajalarining asosiy mezonlari va ko'rsatkichlari.

O'qituvchining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish modelini yaratish uchun quyidagi komponentlar tanlash tavsiya etiladi:

*Motivatsion komponent* O'qituvchining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini modellashtirishda o'quv faoliyatga bo'lgan shaxsiy munosabatni va kasbiy muammolarni hal qilishda qiymat yo'nalishlari to'plamini belgilaydi.

*Kognitiv komponent* – bu o'qituvchining kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish jarayonida zarur bo'lgan bilimlar to'plami. O'qituvchining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning kognitiv komponenti bilish bilan bog'liq bo'lib, jarayon va natija sifatida qaralishi mumkin.

*Tashkiliy faoliyat komponenti* amaliy ko'nikmalar darajasini, boshqaruv muammolarini ijobiy hal qilishga tayyorligini belgilaydi.

*Shaxsiy komponent* o'qituvchining qiziqish, kasbiy-pedagogik niyatlar va moyilliklar, shaxsiy qobiliyat-qadriyatlarni o'z ichiga oladi, u o'z ifodasini o'quvchilarga, ota-onalarga, umuman pedagogik faoliyatga va uning o'ziga xos turlariga ijobiy hissiy munosabati kabi pedagogik bilim va ko'nikmalarni egallashga intilishda namoyon bo'ladi:

O'qituvchining kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning ushbu modeli yaxlit pedagogik jarayonni aks ettiradi, chunki alohida olingan ushbu modelning tarkibiy qismlaridan hech biri belgilangan maqsadga erishmaydi. Modelning har bir komponenti muayyan muammoni hal qiladi va ularning kombinatsiyasi o'qituvchining kognitiv rivojlanishini ta'minlaydi.

Ta'lim tizimidagi innovatsion o'zgarishlar masalalarning aksariyati pedagogika va boshqa fanlar tutashuvida yuzaga keladigan murakkab fanlararo muammolar sifatida namoyon bo'ladi. Binobarin o'qituvchining kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llarini ijtimoiy soha sifatida faqat pedagogik voqelik sifatida ko'rib chiqish va ta'lim muammolarini faqat pedagogik jihatlarga qisqartirish mumkin emasligi bilan izohlanadi.

O'qituvchining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish asosida ta'lim jarayonini sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi takliflarni qayd etish mumkin.

1. Ehtiyojga asoslangan kasbiy rivojlanishda o'qituvchining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishda ilmiy asoslangan va amaliy qo'llanuvchi shakllarini samarali tatbiq etish orqali axborot ta'lim muhiti va metodik ta'minotni yaratish.

2. Kasbiy rivojlanish va ta'lim dasturlari va modullari mazmunida o'qituvchilar kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'quv materiallarni singdirish.

3. Uzlüksiz kasbiy rivojlanish va kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishda "Loyiha faoliyati" va "Muammoli ta'lim" texnologiyasi, evristik, fikrlash mantiqi kabi metod va

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

texnologiyalarning uslubiy imkoniyatlaridan foydalanish.

**АДАБИЁТЛАР РУЙХАТИ**

1. Хомский Н. Аспекты теории синтаксиса / Перевод с английского под редакцией и с предисловием В.А. Звегинцева. Изд-во Московского университета, 1998. – 233 с.
2. Хуторский А.В. Инновации в общеобразовательной школе. Методы обучения. Сборник научных трудов / – М.: ГНУ ИСМО РАО, 2006. – 290 с.
3. Педагогический словарь / Под ред. В.И.Загвязинского, А.Ф.Закировой. – Москва: Академия, 2008. – 337 с.
4. Mardonqulov J.A. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: avtoreferat. diss. (PhD) falsafa doktori. –Toshkent: 2022. –В. 54.
5. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Инновацион таълим технологиялари / – Тошкент: 2015. – 208-бет.
6. Воровщиков С. Г. и др. Теория и практика метапредметного образования: поиски решения проблем. – 2017.
7. Хорешман В.С. Педагогические условия формирования и развития учебно-познавательной компетентности студентов в образовательном процессе вуза: дис. сахар. пед. наук / В.С. Хорешман. - Владикавказ, 2015. - 253 с.